

2025-yil 24-noyabrdagi "Mikrokreditbank" ATB Boshqaruvining 177-1-sonli qarori bilan tasdiqlangan **"Mikrokreditbank" ATB tizimida kredit yig'majildlarini shakllantirish va hujjatlarni rasmiylashtirish Reglamentiga kiritilayotgan qo'shimcha va o'zgartirishlar**"dan ko'chirma

1.

2.

3.

4. Reglamentning 301-bandida ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Hududiy bo'linma mas'ul xodimi yuqorida ko'rsatib o'tilgan arizalarni o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olib hududiy bo'linma rahbariga taqdim etadi. Hududiy bo'linma rahbari arizani ko'rib chiqadi va o'rganish uchun (Kreditlarni boshqarish departamenti hududiy bo'linmadagi quyi bo'linma) mas'ul xodimga yo'naltiradi."

5. Reglamentning 302-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"**302.** Mas'ul xodim arizani qabul qilib, 3 (uch) ish kuni ichida mazkur Reglamentning 15, 15a-ilovada ko'rsatib o'tilgan hujjatlarni mijoz tomonidan taqdim etilishini mijozga ma'lum qiladi."

6. Reglamentning 309-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"**309.** Bosh ofisning vakolatli organi tomonidan ijobiy qaror qabul qilinganda, ushbu qarordan ko'chirma nusxasi hududiy bo'linmaga yuboriladi. Hududiy bo'linmaning mas'ul xodimi mazkur qaror haqida mijozni xabardor qiladi hamda mijoz bilan kredit shartnomasining shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha qo'shimcha kelishuvi rasmiylashtiriladi.

Agar murojaat rad etilgan taqdirda, hududiy bo'linmaning mas'ul xodimi mijozga rad etish sabablari ko'rsatilgan holda javob xati yuboriladi."

